



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma‘lumotlar

# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **23,4** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **8,0** mingtaga kamaygan yoki **25,5 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,8** birlikni tashkil qildi.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-sentabrida **3,6** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **12,0 %** ga kam demakdir.

**Yuridik shaxs** – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi

**2019-2023- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda**



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

**2022- y.**

**2023- y.**

|        |                   |        |
|--------|-------------------|--------|
| 31 443 | Namangan viloyati | 23 409 |
| 10 393 | Namangan sh.      | 7 279  |
| 2 577  | Chust             | 1 999  |
| 1 927  | Pop               | 1 698  |
| 1 993  | Uchqo'rg'on       | 1 659  |
| 1 971  | To'raqo'rg'on     | 1581   |
| 2 122  | Namangan          | 1 509  |
| 1 907  | Chortoq           | 1 453  |
| 2 047  | Uychi             | 1 427  |
| 1 929  | Kosonsoy          | 1 381  |
| 1608   | Yangiqo'rg'on     | 1 180  |
| 1601   | Norin             | 1169   |
| 1 367  | Mingbuloq         | 1 074  |

**30 378**

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **23 409** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 614** tani tashkil etdi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida **7 279** tani yoki jamiga nisbatan **25,2 %** ni tashkil etdi.

## 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

**31 442**

**2022- y.**

**25 547**

**2020- y.**


**20 828**

**2019- y.**

**23 409**

**2023- y.**


**2021- y.**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)\*

|               |      |
|---------------|------|
| Mingbuloq     | 12,4 |
| Uchqo'rg'on   | 11,1 |
| Chortoq       | 10,8 |
| Chust         | 10,7 |
| Namangan sh.  | 10,6 |
| Pop           | 10,1 |
| Namangan      | 9,7  |
| To'raqo'rg'on | 8,7  |
| Norin         | 8,7  |
| Yangiqo'rg'on | 8,2  |
| Kosonsoy      | 7,9  |
| Uychi         | 7,7  |



Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli 1 oktabr holatiga, birlikda



2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,8** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **3,3** birlikka kamaygan.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **12,4** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **11,1** birlik, Chortoq tumanida **10,8** birlik, Chust tumanida **10,7** birlik va Namangan shahrida **10,6** birlikka yetdi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

## Eng yuqori ko'rsatkich




Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **12,4** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **11,1** birlik, Chortoq tumanida **10,8** birlik, Chust tumanida **10,7** birlik, Namangan shahrida **10,6** birlik, Pop tumanida **10,1** birlik, Namangan tumanida **9,7** birlik, Norin va To'raqo'rg'on tumanlarida **8,7** birlik kuzatildi.


**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariغا muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**2023-yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda**

### Namangan shahrida




### Chortoq tumani



Chust tumani

### Mingbuloq tumani



Uchqo'rg'on tumani

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


**Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

**2022- y.**

**2023- y.**

|      |               |     |
|------|---------------|-----|
| 168  | Mingbuloq     | 254 |
| 214  | Kosonsoy      | 215 |
| 256  | Namangan      | 203 |
| 275  | Norin         | 203 |
| 212  | Pop           | 252 |
| 241  | To'raqo'rg'on | 302 |
| 243  | Uychi         | 231 |
| 347  | Uchqo'rg'on   | 344 |
| 307  | Chortoq       | 291 |
| 317  | Chust         | 224 |
| 250  | Yangiqo'rg'on | 186 |
| 1278 | Namangan sh.  | 909 |

**2023- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da**




2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Namangan shahri – **25,2** %, Uchqo'rg'on tumani – **9,5** %, To'raqo'rg'on tumani – **8,4** %, Chortoq tumani – **8,1** %, Mingbuloq va Pop tumanlari – **7,0** %dan, Uychi tumani – **6,4**%, Chust tumani – **6,2** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1 425** ta, sanoatda **692** ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **381** ta yangidan tashkil etilgan.

Shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida **909** ta, Uchqo‘rg‘on tumanida **344** ta hamda To‘raqo‘rg‘on tumanida **302** ta yangidan tashkil etilgan.


2022- y. 2023- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **21 958** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **8 558** (yoki **39,0** %) ta, sanoat sohasida – **5 536** (yoki **25,2** %) ta, xizmatlar sohasida – **3 974** (yoki **18,1** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 498** (yoki **11,4** %) ta va qurilish sohasida – **1 392** (yoki **6,3** %) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




■ 2022- y. ■ 2023- y.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **72,5** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **0,2** punktga ortgan.




## 2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo‘lovchi tashishda **97,5** % ni, qishloq xo‘jaligida **96,4** % ni, yo‘lovchi aylanmasida **95,6** % ni, yuk tashishda **93,9** % ni, chakana savdoda **93,8** % ni, yuk aylanmasida **91,9** % ni, qurlilishda **90,8** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


**2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mldr. so‘m**

|               |        |
|---------------|--------|
| Namangan sh.  | 3377,4 |
| Chust         | 590,5  |
| Uychi         | 539,9  |
| Namangan      | 485,4  |
| Chortoq       | 357,9  |
| Kosonsoy      | 341,4  |
| Pop           | 287,2  |
| To'raqo'rg'on | 282,8  |
| Mingbuloq     | 241,9  |
| Uchqo'rg'on   | 189,3  |
| Norin         | 188,2  |
| Yangiqo'rg'on | 182,7  |

2023- yilning yanvar - sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 064,6** mldr. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (**3 377,4** mldr. so‘m), Chust (**590,5** mldr. so‘m), Uychi (**539,9** mldr. so‘m), Namangan (**485,4** mldr. so‘m), Chortoq (**357,9** mldr. so‘m) va Kosonsoy (**341,4** mldr. so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Yangiqo‘rg‘on tumanida (**182,7** mldr. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

**2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m**

*2023- yil yanvar-sentabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **47,6 %** ni tashkil etdi.*




**2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlari (**100,0 %**), Norin tumani (**90,8 %**), Namangan tumani (**74,5 %**), Pop tumani (**72,4 %**), Uychi tumani (**68,2 %**), Namangan shahri (**58,5 %**) va Kosonsoy tumani (**43,7 %**) tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

**2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi**



## 2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

|               |                |              |
|---------------|----------------|--------------|
| Namangan sh.  | <b>1 349,4</b> | <b>84,9</b>  |
| Uychi         | <b>541,8</b>   | <b>90,4</b>  |
| Chortoq       | <b>386,1</b>   | <b>100,0</b> |
| Kosonsoy      | <b>375,2</b>   | <b>87,1</b>  |
| Namangan      | <b>369,6</b>   | <b>100,0</b> |
| Uchqo'rg'on   | <b>351,3</b>   | <b>100,0</b> |
| Chust         | <b>290,1</b>   | <b>100,0</b> |
| To'raqo'rg'on | <b>285,0</b>   | <b>94,8</b>  |
| Norin         | <b>249,0</b>   | <b>100,0</b> |
| Yangiqo'rg'on | <b>246,5</b>   | <b>98,7</b>  |
| Pop           | <b>243,3</b>   | <b>66,0</b>  |
| Mingbuloq     | <b>201,1</b>   | <b>100,0</b> |

*hajmi, mlrd. so'mda*


*ulushi, % da*

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 888,3** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **90,8** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **108,8** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (**1 349,4** mlrd. so'm), Uychi (**541,8** mlrd. so'm), Chortoq (**386,1** mlrd. so'm), Kosonsoy (**375,2** mlrd. so'm), Namangan (**369,6** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**351,3** mlrd. so'm) hamda Chust (**290,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **9 033,0** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **65,6 %** ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **119,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Namangan sh.hri (**3 033,6** mlrd. so‘m), Namangan (**1 051,5** mlrd. so‘m), To‘raqo‘rg‘on (**887,9** mlrd. so‘m), Chust (**835,2** mlrd. so‘m), Chortoq (**772,2** mlrd. so‘m), Pop (**476,8** mlrd. so‘m) hamda Uchqo‘rg‘on (**407,7** mlrd.so‘m) viloyatlarida qayd etildi.

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



## 2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so‘m ■ ulushi, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **21 400,4** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **95,8** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **105,0** % ni tashkil qildi.

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Yangiqo‘rg‘on (**3 382,8** mlrd. so‘m), Chust (**2 087,5** mlrd. so‘m), Namangan (**1 964,0** mlrd. so‘m), Namangan sh. (**1 939,7** mlrd. so‘m), Uchqo‘rg‘on (**1 789,1** mlrd. so‘m) hamda Uychi (**1710,8** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

|               |        |      |
|---------------|--------|------|
| Yangiqo‘rg‘on | 3382,8 | 99,7 |
| Chust         | 2087,5 | 99,9 |
| Namangan      | 1964,0 | 95,2 |
| Namangan sh.  | 1939,7 | 83,0 |
| Uchqo‘rg‘on   | 1789,1 | 96,8 |
| Uychi         | 1710,8 | 97,9 |
| Pop           | 1700,7 | 91,3 |
| To‘raqo‘rg‘on | 1685,2 | 99,2 |
| Chortoq       | 1503,3 | 99,1 |
| Mingbuloq     | 1444,0 | 89,5 |
| Norin         | 1380,1 | 96,8 |
| Kosonsoy      | 1113,2 | 99,2 |


↑  
hajmi, mlrd. so‘mda  
↑  
ulushi, % da

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **12 136,6** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **82,8 %**ini tashkil etib, o‘sish sur‘ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **104,4 %** ni tashkil qildi.


## 2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

|               |        |      |
|---------------|--------|------|
| Namangan sh.  | 4763,4 | 92,0 |
| Chust         | 941,5  | 93,0 |
| To‘raqo‘rg‘on | 831,5  | 90,3 |
| Pop           | 763,5  | 92,0 |
| Uychi         | 721,0  | 99,2 |
| Norin         | 694,8  | 94,9 |
| Yangiqo‘rg‘on | 687,7  | 97,5 |
| Kosonsoy      | 651,1  | 99,0 |
| Chortoq       | 607,7  | 97,2 |
| Uchqo‘rg‘on   | 563,9  | 96,1 |
| Namangan      | 540,0  | 95,1 |
| Mingbuloq     | 370,6  | 94,6 |

hajmi, mlrd. so‘mda      ↑  
ulushi, % da      ↑


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (**4 763,4** mlrd. so‘m), Chust (**941,5** mlrd. so‘m), To‘raqo‘rg‘on (**831,5** mlrd. so‘m), Pop (**763,5** mlrd. so‘m), Uychi (**721,0** mlrd. so‘m), Norin (**694,8** mlrd. so‘m) va Yangiqo‘rg‘on (**687,7** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

## 2018 va 2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mldr. so‘mda



2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8405,9** mldr. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,7 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur‘ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **108,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Namangan shahri (**2 303,5** mldr. so‘m), Chust (**687,5** mldr. so‘m), Uychi (**662,6** mldr. so‘m), To‘raqo‘rg‘on (**626,5** mldr. so‘m), Pop (**574,8** mldr. so‘m), Yangiqo‘rg‘on (**555,1** mldr. so‘m) va Chortoq (**553,7** mldr. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega  
bo‘lgan turlari  
(yanvar-sentabr oylarida)

|         |   |      |
|---------|---|------|
| 3 531,4 | Savdo xizmatlari  | 42,0 |
| 2154,7  | Transport xizmatlari  | 25,6 |
| 829,6   | Shaxsiy xizmatlar   | 9,9  |
| 349,8   | Kompyuterlar va maishiy tovarlarni<br>ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar                       | 4,2  |
| 316,3   | Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar   | 3,8  |
| 285,6   | Yashash va ovqatlanish xizmatlari   | 3,4  |
| 278,3   | Boshqa xizmatlar  | 3,3  |
| 203,8   | Ijara xizmatlari  | 2,4  |
| 171,0   | Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar  | 2,0  |
| 108,2   | Ta’lim sohasidagi xizmatlar   | 1,3  |
| 83,7    | Me’morchilik, muhandislik izlanishlari,<br>texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 1,0  |
| 48,2    | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari   | 0,6  |
| 45,3    | Moliyaviy xizmatlar   | 0,5  |

*Hajmi, mlrd. so‘mda*



*Ulushi, foizda*

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **42,0 %** (3 531,4 mlrd. so‘m), transport xizmatlarida – **25,6 %** (2 154,7 mlrd. so‘m), shaxsiy xizmatlarda – **9,9 %** (829,6 mlrd. so‘m) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarda **4,2 %** (349,8 mlrd. so‘m)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,5 %** (45,3 mlrd so‘m) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

**2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**



**2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi**

|               |      |       |
|---------------|------|-------|
| Yangiqo‘rg‘on | 5,1  | 100,0 |
| Norin         | 4,6  | 100,0 |
| Chortoq       | 1,4  | 100,0 |
| Pop           | 10,6 | 96,7  |
| Mingbuloq     | 1,6  | 91,4  |
| Uychi         | 16,3 | 55,7  |
| Namangan sh.  | 76,8 | 52,1  |
| Namangan      | 8,9  | 50,5  |
| Kosonsoy      | 17,5 | 33,9  |
| To‘raqo‘rg‘on | 31,3 | 33,3  |
| Chust         | 4,5  | 16,2  |
| Uchqo‘rg‘on   | 0,6  | 2,7   |

hajmi, mln. AQSH dollar      ↑  
ulushi, % da      ↑


2023- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **179,3** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **43,5** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Yangiqo‘rg‘on, Norin, Chortoq tumanlarida – **100,0** %, Pop tumanida – **96,7** %, Mingbuloq tumanida – **91,4** %, Uychi tumanida – **55,7** %, Namangan shahrida – **52,1** %, Namangan tumanida – **50,5** % ni tashkil qildi.

Eng past ko‘rsatkich Uchqo‘rg‘on tumanida – **2,7** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **418,2** million AQSH dollarini yoki jami importning **68,7** % ini tashkil etdi.


**2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagagi ulushi, % da**




2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – **100,0** %, Norin tumanida – **98,4** %, Pop tumanida – **94,8** %, Uychi tumanida – **92,2** %, Mingbuloq tumanida – **92,0** %, va Namangan tumanida – **84,4** % ni tashkil etdi.

|               |       |
|---------------|-------|
| Chortoq       | 100,0 |
| Yangiqo'rg'on | 100,0 |
| Norin         | 98,4  |
| Pop           | 94,8  |
| Uychi         | 92,2  |
| Mingbuloq     | 92,0  |
| Namangan      | 84,4  |
| Uchqo'rg'on   | 67,0  |
| Namangan sh.  | 65,7  |
| Kosonsoy      | 63,4  |
| Chust         | 54,1  |
| To'raqo'rg'on | 10,1  |


# Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,9** % ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan oʼsish surʼati **102,1** % ni tashkil qildi.



2023- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,9** % ni tashkil etgan boʼlib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan oʼsish surʼati **104,0** % ni tashkil qildi.




2023- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yoʼlovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,9** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan oʼsish surʼati **101,9** % ni tashkil qildi.



2023- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transporti yoʼlovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,6** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan oʼsish surʼati **105,7** % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming birlikda**




2023- yil **III** chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1 132** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **357** (**31,6 %**) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **710** (**62,7 %**) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **65** (**5,7 %**) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **42,4 %** (**480** ta), xizmatlar sohasida – **28,1 %** (**318** ta), sanoatda – **17,2 %** (**195** ta), qurilishda – **6,3 %** (**71** ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **6,0 %** (**68** ta)ni tashkil etdi.

**2023- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

|     |               |      |
|-----|---------------|------|
| 55  | Mingbuloq     | 4,9  |
| 65  | Kosonsoy      | 5,7  |
| 73  | Namangan      | 6,5  |
| 55  | Norin         | 4,9  |
| 91  | Pop           | 8,0  |
| 71  | To‘raqo‘rg‘on | 6,3  |
| 71  | Uychi         | 6,3  |
| 58  | Uchqo‘rg‘on   | 5,1  |
| 75  | Chortoq       | 6,6  |
| 69  | Chust         | 6,1  |
| 49  | Yangiqo‘rg‘on | 4,3  |
| 400 | Namangan sh.  | 35,3 |


**Soni, ta**

**Ulushi, foizda**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (**400** ta), Pop (**91** ta), Chortoq (**75**), Namangan (**73** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilning III choragida **265** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragiga kelib esa **357** taga yetgan yoki 2018- yilning III choragiga nisbatan **92** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **340** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida **710** ta yoki **370** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **89** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **65** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **24** taga kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**



qulay

qoniqarli

qoniqarsiz

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning III choragida **382** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning III choragiga kelib esa, **389** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **7** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning III choragida **216** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning III choragida **571** ta yoki **355** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2018- yilning III choragida **45** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning III choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **46** tani tashkil etib, **1** taga oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da**



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III choragida **38,2 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa, **31,5 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **6,7 %** kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018- yilda **49,0 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragida **62,7 %** yoki **13,7 %** ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **12,8 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **5,8 %** ga yetgan yoki **7,0 %** ga kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2018-2023- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning **III** choragida **59,4** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilga kelib esa, **38,7** % ga yetgan yoki 2018- yilning **III** choragida nisbatan **20,7** % kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2018- yilning **III** choragida **33,6** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida **56,7** % yoki **23,1** % oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa, 2018- yilning **III** choragida **7,0** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning **III** choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **4,6** % yoki **2,4** % birlikka kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **39,4** % ni, savdoda – **34,4** % ni, xizmatlar sohasida – **30,5** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **76,5** % ni, sanoatda – **66,1** % ni, xizmatlar sohasida – **65,1** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **8,5** % ni, sanoatda – **6,7** % ni, savdoda – **6,2** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **50,8 %** ni, savdoda – **42,1 %** ni va xizmatlarning sohasida – **37,0 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **79,3 %** ni, sanoatda – **59,4 %** ni, xizmatlarning sohasida – **59,1 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **9,2 %** ni, sanoatda – **5,3 %** ni, xizmatlarning sohasida – **4,2 %** ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


|   | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan<br>joriy davrdagi o‘zgarishlar |              |                             |
|---|--|--------------|-----------------------------|
|   | Ko‘payish<br>(yaxshilanish*)                                       | o‘zgarishsiz | Kamayish<br>(yomonlashish*) |
| <b>Korxonaning umumiyligi<br/>aylanmasi</b>                                 | 36,5   | 57,0         | 6,5                         |
| <b>Band bo‘lganlar soni</b>   | 14,9   | 81,6         | 3,5                         |
| <b>Sotilgan mahsulot (tovarlar,<br/>ishlar va xizmatlar) uchun<br/>narx</b> | 35,7   | 60,7         | 3,6                         |
| <b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z,<br/>kredit va qarz mablag‘lari</b>            | 29,6   | 67,2         | 3,2                         |
| <b>Raqobat muhiti</b>   | 40,7   | 57,2         | 2,1                         |

|   | Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli |              |                             |
|---|-------------------------------------|--------------|-----------------------------|
|   | Ko‘payish<br>(yaxshilanish*)        | o‘zgarishsiz | kamayish<br>(yomonlashish*) |
| <b>Korxonaning umumiyligi<br/>aylanmasi</b>                                 | 36,9                                | 60,5         | 2,6                         |
| <b>Band bo‘lganlar soni</b>   | 15,6                                | 82,4         | 2,0                         |
| <b>Sotilgan mahsulot (tovarlar,<br/>ishlar va xizmatlar) uchun<br/>narx</b> | 31,9                                | 66,0         | 2,1                         |
| <b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z,<br/>kredit va qarz mablag‘lari</b>            | 30,0                                | 67,2         | 2,8                         |
| <b>Raqobat muhiti</b>   | 36,5                                | 61,9         | 1,6                         |

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli


# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

**2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,  
yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli